


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10 578,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **1,4 %** ga kopaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 720,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **118,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 857,8** mlrd. so'mni (**4,7 %** ga kopaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **823,7** mlrd. so'mni (**10,9 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **10 578,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **101,4** % ni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **83,7** % va yirik korxonalar hissasiga **16,3** % to'g'ri keldi.





ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri **31,9** % ulush bilan **3370,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Qorovulbozor **2,0** % ulush bilan **210,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **8 857,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **4,7 %** ga kopaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **83,7 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Buxoro sh. (100,4 %), Gijduvon (105,8 %), Kogon t.(105,5 %), Vobkent (100,8 %), Jondor (100,3 %), Olot (100,2 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kopayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'ijduvon (105,8 %), Kogon (105,5 %), tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiylabirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	10578,0	101,4	1720,1	118,2	8857,8	104,7
<i>tumanlar:</i>						
Buxoro sh.	3370,9	100,4	1118,9	124,4	2252,0	108,5
Kogon sh.	359,2	100,1	3,0	43,4	356,2	100,2
Olot	244,5	100,2	5,3	227,6	239,2	100,5
Buxoro	570,1	100,0	4,8	221,2	565,3	100,1
Vobkent	596,4	100,8	206,8	115,2	389,6	109,8
G'ijduvon	2033,8	105,8	235,3	88,8	1798,5	108,8
Kogon	258,1	105,5	100,5	191,8	157,6	121,7
Qorako'l	828,9	100,1	7,8	47,2	821,1	100,2
Qorovulbozor	210,4	100,1	10,6	114,3	199,8	100,8
Peshku	363,9	100,3	5,6	188,1	358,3	100,5
Romitan	664,9	100,0	5,8	92,0	659,1	100,1
Jondor	637,1	100,3	9,5	117,3	627,6	100,5
Shofirkon	439,8	100,0	6,1	158,0	433,7	100,2

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **18,2 %** ga o'sdi va **1 720,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **16,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 857,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **4,7 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **83,7 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha kogon sh (99,2 %), buxoro (99,2 %), Qorako'l (99,1 %), Romitan (99,1 %), Shofirkon (98,6 %), Jondor (98,5 %) Peshku (98,5 %), tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (39,9 %), Vobkent (34,7 %), Buxoro sh.. (33,2 %), va Gijduvon (11,6 %) tumanlarida kuzatildi.





BUXORO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2020- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 475,7** ming so'mni tashkil etib (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **100.0** %). Viloyatning ayrim shahar va tumanlarida Gijduvon (104,4 %), Kogon (103,4 %) tumanlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Buxoro shahri (12 017,6 ming so'm) va Qorovulbozor tumani (11 435,2 ming so'm), hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Buxoro viloyati	5 475,7	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Buxoro sh.	12 017,6	99,8
Kogon sh.	5 860,4	99,3
Olot	2 461,7	98,8
Buxoro	3 411,9	98,2
Vobkent	4 257,0	99,2
G'ijduvon	6 674,7	104,4
Kogon	3 287,8	103,4
Qorako'l	5 051,0	99,0
Qorovulbozor	11 435,2	98,4
Peshku	2 953,7	98,5
Romitan	4 679,0	98,2
Jondor	3 237,9	98,7
Shofirkon	2 175,9	98,7

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **832,2** mlrd.so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **10,1** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **433,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,7** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **398,8** mlrd.so'mni (o'zgarish sur'ati **72,0** %) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **433,4** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **398,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	832,2	89,9	433,4	116,7	398,8	72,0
<i>tumanlar:</i>						
Buxoro sh.	137,5	85,5	79,7	105,1	57,8	68,1
Kogon sh.	32,9	74,9	15,6	122,8	17,3	55,5
Olot	28,7	81,3	6,0	71,7	22,7	84,3
Buxoro	30,6	58,1	24,5	85,3	6,1	25,6
Vobkent	55,7	102,9	9,2	27,4	25,7	125,0
G'ijduvon	307,9	128,6	208,9	126,8	99,0	132,6
Kogon	-	-	-	-	-	-
Qorako'l	48,3	42,8	13,1	241,6	35,2	32,8
Qorovulbozor	17,2	57,5	6,3	113,3	10,9	44,7
Peshku	39,5	83,7	17,7	179,7	21,8	58,3
Romitan	82,8	96,8	5,7	45,3	77,2	105,6
Jondor	33,0	70,6	12,4	231,1	20,6	49,8
Shofirkon	18,1	105,7	13,5	154,3	4,5	54,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,2
mlrd. so'm

Tuzlamalar



123,5
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



16,1
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

72,2
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



19,6
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

7,3
mlrd. so'm



Tuxum

36,3
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

3,6
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

7,6
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

26,5
mlrd. so'm



Ziravorlar

47,5
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **433,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**123,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **398,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **231,0** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **71,0** mlrd. so'mni, otlar **3,1** mlrd. so'mni, parrandalar **0,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yil yanvar-noyabr

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,9 %** ni tashkil etib, **304,7 mlrd. so‘mga** yetdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **11,5 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **86,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd.so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd.so‘m	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd.so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	304,7	88,5	42,5	121,9	262,2	84,7
<i>tumanlar:</i>						
Buxoro sh.	151,4	98,3	33,4	123,7	118,0	92,9
Kogon sh.	9,2	75,7	-	-	9,2	75,7
Olot	5,4	79,9	-	-	5,4	79,9
Buxoro	19,5	88,6	-	-	19,5	88,6
Vobkent	20,7	79,5	-	-	20,7	79,5
G'ijduvon	29,8	75,1	0,0	14,4	29,8	75,1
Kogon	6,7	89,2	-	-	6,7	89,2
Qorako'l	13,7	72,5	-	-	13,7	72,5
Qorovulbozor	13,3	104,5	9,1	116,0	4,3	86,4
Peshku	5,4	97,1	-	-	5,4	97,1
Romitan	16,7	98,3	-	-	16,7	98,3
Jondor	8,0	66,4	-	-	8,0	66,4
Shofirkon	4,9	49,2	-	-	4,9	49,2

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil
yanvar-noyabr



2020- yil
yanvar-noyabr



Nodavlat mulk

Davlat mulki

2019- yil yanvar-noyabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **0,05 %** dan **0,06 %** ga oshdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **304,7** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 88,5 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **304,5** mlrd. so'm nodavlat mulkga (99,94 %) hamda **0,2** mlrd. so'm (0,06 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi va davlat ulushi Buxoro shahriga (0,1%) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	304,7	100,0	304,5	99,94	191	0,06
<i>tumanlar:</i>						
Buxoro sh.	151,4	49,7	151,2	99,99	191	0,1
Kogon sh.	9,2	3,0	9,2	100	-	-
Olot	5,4	1,8	5,4	100	-	-
Buxoro	19,5	6,4	19,5	100	-	-
Vobkent	20,7	6,8	20,7	100	-	-
Gijduvon	29,8	9,8	29,8	100	-	-
Kogon	6,7	2,2	6,7	100	-	-
Qorako'l	13,7	4,5	13,7	100	-	-
Qorovulbozor	13,3	4,4	13,3	100	-	-
Peshku	5,4	1,8	5,4	100	-	-
Romitan	16,7	5,5	16,7	100	-	-
Jondor	8,0	2,6	8,0	100	-	-
Shofirkon	4,9	1,6	5,0	100	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar



Kichik biznes subyektlari

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 701,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **19,8 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **602,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **87,9 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 098,5** mlrd. so'mni (**21,8 %** ga kamaydi).

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Buxoro sh. (176,6 %), Kogon sh. (10,6 b.) va Peshku (6,1 b.) tumanlarida kuzatildi.



Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Olot tuman (149,9 %) qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd.so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd.so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd.so'm	2019- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	2701,1	80,2	602,7	87,9	2098,5	78,2
<i>tumanlar:</i>						
Buxoro sh.	1060,7	92,8	129,7	176,6	931,0	87,0
Kogon sh.	67,4	44,2	25,7	10,6 b	41,6	27,8
Olot	50,7	149,9	21,3	94,5	29,4	2,6 b
Buxoro	353,5	117,6	0,0	1,7	353,5	117,7
Vobkent	68,5	76,4	33,2	65,4	35,3	90,8
G'ijduvon	128,8	59,7	31,7	94,2	97,1	53,4
Kogon	79,4	19,8	27,2	8,8	52,2	56,5
Qorako'l	108,0	59,7	17,4	64,2	90,6	58,9
Qorovulbozor	48,3	53,2	34,6	75,7	13,6	30,3
Peshko'	474,7	117,1	198,1	6,1 b	276,6	74,2
Romitan	87,3	60,9	20,1	86,9	67,2	55,9
Jondor	135,4	84,6	37,0	106,6	98,4	78,5
Shofirkon	38,3	76,2	26,6	88,1	11,8	58,4

**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **2 098,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 21,8 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **77,7** % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Buxoro sh. (87,8 %), Kogon sh. (61,8%), Buxoro (100,0 %) va Qorako'l (83,9 %) tumanlarida, yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Qorovulbozor (28,3 %) tumaniga to'g'ri keldi.

